

O'ZBEKISTONDA BUDDAVIYLIK DININING TARIXIY ILDIZLARI

Elboyev Farxod Xolmaxmat o'g'li

TDIU assistant o'qituvchisi

Tel: +998909539656

Kamolxo'jayeva Muxlisa Akbarxo'ja qizi

TDIU Iqtisodiyot yo'nalishi talabasi

ANNOTATSIYA

O'zbekiston hududi qadim zamonalardan buyon madaniy, savdo va diniy aloqalar chorrahasi bo'lib kelgan. Xususan, Buyuk Ipak Yo'lining muhim qismi bo'lgan bu hududda turli davrlarda zardo'shtiylik, buddaviylik va moniylik kabi dinlarning kirib kelishiga sabab bo'lgan. Bu maqolada O'zbekistonga buddaviylikning kirib kelishi, rivoji va merosi haqida so'z yuritamiz.

Kalit so'z: Buddaviylik, Buyuk ipak yo'li, Qoratepa, Fayoztepa, Ayritom, Dalvarzintepa, stupa.

АННОТАЦИЯ

Территория Узбекистана с древних времен была перекрестком культурных, торговых и религиозных связей. В частности, как важная часть Великого шелкового пути, этот регион стал местом распространения таких религий, как зороастризм, буддизм и манихейство. В данной статье рассматривается проникновение, развитие и наследие буддизма в Узбекистане.

Ключевые слова: Буддизм, Великий шёлковый путь, Коратепа, Файозтепа, Айритом, Далварзинтепа, ступа.

ABSTRACT

The territory of Uzbekistan has long been a crossroads for cultural, trade, and religious exchanges. In particular, as an important part of the Great Silk Road, this region witnessed the introduction of religions such as Zoroastrianism, Buddhism, and Manichaeism at different times. This article discusses the arrival, development, and legacy of Buddhism in Uzbekistan.

Keywords: Buddhism, Great Silk Road, Koratepa, Fayaztapa, Ayrtam, Dalverzintepa, stupa.

KIRISH.

Buddaviylik O'rta Osiyoga kirib kelishi va keng tarqalishida Buyuk Ipak Yo'li muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Bu savdo yo'li orqali Sharq va G'arb o'rtasida madaniy almashinuvlar bo'lib turdi. Savdogarlar, budda rohiblari va boshqa

sayohatchilar orqali buddaviylik ta'limoti Markaziy Osiyoga, shu jumladan hozirgi O'zbekiston hududiga kirib keldi. Bu davrda buddaviylikning kirib kelishi mahalliy xalqlar madaniyati va diniy hayotiga katta ta'sir ko'rsatdi. Bundan tashqari, milodiy I asrda Markaziy Osiyo hududida hukmronlik qilgan Kushonlar davlati buddaviylikni rivojlantirishda muhim rol o'ynadi. Ayniqsa, Kanishka (taxminan milodiy 78–123 yillar) Kushonlar imperiyasining eng qudratli hukmdorlaridan biri bo'lib, uning davrida buddaviylik davlat tomonidan qo'llab-quvvatlangan va rivojlantirilgan. Kanishka o'z imperiyasini Hindistonning shimoliy hududlariga, shu jumladan Gandxara va Kashmir viloyatlariga kengaytirdi. Bu hududlarda buddaviylik allaqachon mavjud bo'lgan bo'lsa-da, Kanishkaning himoyasi tufayli din yanada yuksalib, keng ommaga tarqalgan. Kanishka buddaviylikni kuchli qo'llab-quvvatlangan va bu dinning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. U Gandxarada Buddaviylik Kengashini chaqirgan, bu kengashda buddaviylik ta'limotlari muhokama qilinib, tartibga keltirilgan. Shuningdek, uning davrida buddaviylik san'ati, ayniqsa Gandxara san'ati yuksak darajada rivojlangan. Gandxara san'atida yunon va hind madaniy an'analari uyg'unlashgan holda Buddanining haykallari va freskalari yaratildi. Kanishka o'z davrida buddaviylik san'atini, ibodatxonalarini va boshqa diniy inshootlarni rivojlantirishga katta e'tibor qaratganini shu dalillar yordamida bilamiz. Kanishka imperiyasining hududiy kengayishi va uning buddaviylikni targ'ib qilishi tufayli bu din Markaziy Osiyo, Xitoy va boshqa Sharqiy Osiyo davlatlariga ham tarqalgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

O'zbekiston hududida buddaviylik qadimgi davrlarda rivojlangan va uning izlari hozirgi kunda ham arxeologik yodgorliklarda saqlanib qolgan.

Arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, milodiy I asrning boshlaridan Tarmita-Termiz buddaviylik ta'limotini Markaziy Osiyoda tarqalishida o'ziga xos «ko'pri» vazifasini bajargan. Mil. 629-630 yilda Baqtriya-Toxariston o'lkasi bo'ylab sayohat qilgan xitoylik buddaviy rohib Syuan Szan ham Tami (Termiz) mulkligida 12 ta, Chag'oniyon (Surxondaryoning o'rta va yuqori oqimi bo'yida joylashgan mulklik)da esa 5 ta buddaviylik inshootlari mavjud bo'lganligini o'z asarida ta'kidlab o'tgan.¹ Shundan ko'rinish turibdiki, Termiz shahri Kushon davrining yirik siyosiy, iqtisodiy, madaniy va savdo hunarmandchilik markazi sifatida tanilgan.

Markaziy Osiyo Buyuk Ipak Yo'lining muhim nuqtalaridan biri bo'lgani sababli buddaviylik bu hududga Hindiston va Sharqiy Osiyo davlatlaridan kirib kelgan. Kanishkaning islohotlari natijasida O'zbekistondagi qadimiy Baqtriya va Sug'diyona

¹ ЎТМИШГА НАЗАР / ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ / LOOK TO THE PAST № SI-3 (2021) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9599-2021-SI-3> Жалолиддин Аннаев. Тармита-Термиз буддийлик маданияти. 157-бет

hududlarida ko‘plab buddaviylik yodgorliklari barpo etilgan. Tarmita-Termiz shahrida bu davrda buddizm dini va uning madaniyati hayotning barcha sohalariga tez kirib keldi. Xususan, buddizm madaniyat va san’atning homiysi sifatida ko‘zga tashlanadi.

Buddizm dinining yirik g‘oyaviy markazlari sifatida Qoratepa va Fayoztepa monastirlari shu davr madaniyatining taraqqiyotidan darak beradi. Xuddi shu davrda Termiz shahrining maydoni 350 gettarni tashkil etadi. Shahar sharqiy hududlarga qarab kengayib borgan. Uning sharqiy tomonidagi Zurmala stupasi ham Termiz shahrining o‘sha davrda yirik buddaviylik markazi bo‘lganligidan darak beradi.²

O‘zbekistondagi ba’zi muhim buddaviylik yodgorliklari va arxeologik topilmalar quyidagilardan iborat:

1. Qoratepa:

Qoratepa majmuasi Surxondaryo viloyati, Termiz shahrining sharqiy qismida joylashgan bo‘lib, Markaziy Osiyodagi eng yirik buddaviy monastir va ibodatxonalar majmualaridan biri hisoblanadi. Bu joyda olib borilgan arxeologik qazishmalar Qoratepa milodiy I-III asrlarda Kushonlar davrida faoliyat ko‘rsatgan diniy markaz bo‘lganini ko‘rsatadi. Qoratepa hududi o‘zining noyob arxitekturasi, devoriy san’ati va haykaltaroshlik namunalariga ega bo‘lib, Markaziy Osiyoda buddaviylik madaniyatining rivojlanishini aks ettiradi. Qoratepedagi Budda diniy markazi uchta kichik tepalikdan iborat qumtosh tepaligida joylashgan bo‘lib, taxminan 7 hektar maydonni egallagan.³ Qoratepedagi buddaviy yodgorliklarda Buddanining turli ko‘rinishdagi tasvirlari va haykallari uchraydi. U yerdagi devoriy rasmlar va haykallar, ayniqsa, Gandxara san’ati ta’sirini aks ettiradi. Gandxara uslubi yunon va hind madaniyatining uyg‘unlashuvidan tashkil topgan bo‘lib, Budda tasvirlari yunoncha an’analarga moslab ishlangan. Majmua devorlarida Budda va uning izdoshlari hayotidan sahnalar aks ettirilgan. Ushbu freskalar Buddanining hayoti va ta’limoti bilan bog‘liq bo‘lib, unda rohiblarning kundalik hayoti, diniy marosimlari va Budda hayoti bilan bog‘liq turli voqealar tasvirlangan. Arxeologik qazishmalar natijasida Qoratepedan turli xil diniy ashyolar, sopol idishlar, tangalar va yozuvlar topilgan. Ushbu ashyolar buddaviy rohiblarning kundalik hayotini va ularning diniy faoliyatini tushunishga yordam beradi. Qoratepedan topilgan yozuvlar va sopol buyumlar Kushon imperiyasi davridagi diniy va ijtimoiy hayot haqida qimmatli manbadir. Shu bilan birga, topilgan tangalar va bezaklar bu joyning iqtisodiy va savdo hayotida ham muhim o‘rin tutganini ko‘rsatadi. Shuni ta’kidlab o‘tish kerakki,

² Builders of The Future. ISSN: 2181-2705. 3.Э. Холиков. Тармита - Термиз Ўрта Осиёнинг йирик буддийлик маркази. 304-бет. <https://doi.org/10.37547/builders-v2-i2-46>

³ Builders of The Future. ISSN: 2181-2705 К. Хакбердиев. Распространение буддизма в Узбекистане <https://doi.org/10.37547/builders-v2-i2-45>

1927 yilda arxeloglar qadimiy Termizni o'rganib, u yerda qator yunon buddaviylik yodgorliklari mavjudligini aniqladi. Termiz arxeologik kompleks ekspeditsiyasining (TAKE) ishlari natijasida Qoratepa va Chingiztepada ikkita yirik budda ibodatxonasi bo'lganligi aniqlandi, yunon buddaviylik me'morchiligi va haykallarining parchalari topilgan o'nlab joylar qayd etildi.

2. Fayoztepa:

Fayoztepa Termiz yaqinida joylashgan qadimiy arxeologik yodgorliklardan biridir. Bu joyda buddaviy ibodatxonalar, haykallar va devoriy rasmlar topilgan. Fayoztepa milodiy I-III asrlarga tegishli bo'lib, u yerdan topilgan Buddha haykallari va freskalar buddaviylikning bu hududda keng tarqalganligini ko'rsatadi.

Fayoztepa "vixara" (sanskritcha – kulba, boshpana, buddaviy rohiblarning yomg'ir mavsumi vaqtida yashaydigan kulba, hovli va bog'dan iborat bo'lgan joy) uslubidagi ibodatxona bo'lib, uning markazida diniy marosimlar o'tkazilgan. Ibodatxona bilan yonma-yon joylashgan stupadan oltin suvi yurgizilgan, sopol va marmardan yasalgan haykallar topilgan. Bu yerdan marmartoshdan nafis ishlov berib yasalgan muqaddas "Boddxa" daraxti ostida o'tirgan Buddha va uning ikki tomonida turgan ikki rohib haykali ham topilgan.⁴ Fayoztepa buddaviylik san'ati va me'morchiligining qimmatli namunalaridan biridir va O'zbekistonda buddaviylik izlarini o'rganishda muhim manbadir.

3. Ayrитом:

Termizdan 17 km masofada joylashgan Ayrитом shaharchasining sharq tarafida aftidan buddaviylik stupasiga o'xshash minora shaklidagi xom g'ishtdan qurilgan bino vayronalari joylashgan. 1933 yilda arxeolog M.Ye.Masson tomonidan xom g'ishtdan qurilgan bino qoldiqlari, uning ichida esa haykal, tosh karnizlar, me'moriy buyumlar, toshdan yasalgan muqaddas yodgorliklar borligi aniqlangan. Musiqachilar va mutafakkirlar, ehson keltiruvchilarning shakllari tushirilgan haykallarning hoshiyali tosh plitalari topilgan. Bu ibodatxona majmuasiga ibodat joylaridan tashqari rohiblar uchun yotoqxona va qator xizmat xonalari, ya'ni oshxona, omborxonalarini ham o'z ichiga olgan. Ayirtomdagи buddaviylik yodgorliklari mahalliy xalq hayotida ushbu dinning ta'sirini aks ettiradi.

4. Zarautsoy:

Zarautsoy O'zbekistonning Surxondaryo viloyatida joylashgan bo'lib, qadimgi davrlarda buddaviylik izlari mavjud bo'lgan arxeologik yodgorliklardan biridir. Zarautsoy asosan o'zining qoyatosh san'ati bilan mashhur bo'lib, u yerda qadimgi diniy va madaniy hayotga oid bir qancha tasvirlar topilgan. Ushbu joyda Buddha

⁴ А.Очилдиев, Д.Рахимжонов, Н.Мухамедов. Диншунослик асослари (Ўкув қўлланма). «Тошкент ислом университети» нашриёт-матбаа бирлашмаси. Тошкент – 2013. 160-бет

tasvirlari va boshqa diniy sahnalar tasvirlangan bo‘lib, ular bu hududda buddaviylik ta’sirining mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi. Zarautsoy qadimgi davrlarda Markaziy Osiyoda buddaviylik dini ta’siriga tushgan hududlardan biri hisoblanadi. Bu yer Ipak Yo‘li yo‘nalishidagi muhim madaniy nuqtalarda joylashganligi sababli Hindiston va boshqa Sharqiy Osiyo davlatlaridan kelgan savdogarlar, ziyoratchilar va buddaviy rohiblarning madaniy va diniy ta’siri bu hududda iz qoldirgan. Zarautsoy yodgorliklari qadimiy O‘zbekiston hududida buddaviylik va boshqa dinlarning qanchalik keng tarqalganini va madaniy almashinuv mavjudligini anglatadi. Zarautsoydagি qoyatosh san’atida Buddaning turli sahnalari va diniy ramzlar tasvirlangan. Bu tasvirlarda Buddha va uning izdoshlari, rohiblarning diniy marosimlari, shuningdek, ularning meditatsiya holatidagi shakllari uchraydi. Ushbu tasvirlar o‘sha davrda buddaviylik dini ta’sirining mahalliy aholi orasida keng tarqalganini va bu hududda diniy madaniyatning rivojlanganligini ko‘rsatadi. Zarautsoy qoyatosh san’ati qadimgi O‘zbekiston xalqining diniy hayoti haqida qimmatli ma’lumot beradi. Buddaviylik izlari bu hududda qadimgi diniy e’tiqodlarning shakllanganini va bu dinning mahalliy madaniyat bilan uyg‘unlashganini ko‘rsatadi. Ushbu joy nafaqat buddaviylik, balki boshqa qadimgi madaniyat va dinlarning ham yodgorliklarini o‘z ichiga oladi, bu esa Zarautsoyni muhim madaniy meros manbaiga aylantiradi.

5. Dalvarzintepa:

Dalvarzintepadagi buddaviy yodgorliklar o‘ziga xos arxitektura va san’at asarlariga ega. Majmuada ibodatxonalar, buddaviy rohiblar uchun mo‘ljallangan xonalar, meditatsiya joylari va boshqa diniy binolar joylashgan. Dalvarzintepadagi ibodatxona qoldiqlari Hindiston va Kushonlar davri arxitektura uslublari bilan uyg‘unlashgan holda qurilgan bo‘lib, undagi bezaklar va tasvirlar buddaviylik g‘oyalari va ramzlarini aks ettiradi. Dalvarzintepada turli xil arxeologik topilmalar aniqlangan, jumladan, Buddha tasvirlari, devoriy rasmlar, diniy ramzlar va ibodat qilinadigan joylar. Ushbu topilmalar orasida Buddaning hayoti va ta’limotlarini aks ettiruvchi freskalar va boshqa diniy tasvirlar mavjud. Bu tasvirlar orqali qadimgi Markaziy Osiyo xalqlarining buddaviylik g‘oyalalarini qabul qilganligini va bu diniy ta’limotni o‘z madaniyatiga moslashtirganligini ko‘rish mumkin. Kushon podsholigining dastlabki poytaxti Dalvarzintepa (qalnligi 10 metrgacha bo‘lgan qudratli mudofaa devori bilan o‘rab olingen qal’a shahar) o‘rnida bo‘lgan. Kushonlar hukmdori Kanishka davrida Dalvarzintepa shahar sifatida shakllanib, savdo-sotiq markazlaridan biriga aylangan. Bu yerda O‘rta Osiyo hududlarida birinchi marta Buddaning loydan yasalgan, yaxshi saqlangan tasviri, ko‘plab haykalchalar, bezaklar, diniy marosimbuyumlari va tangalar topilgan, ular II asr oxiri III asr boshidagi budda

ibodatxonasining markaziy binolari ichida saqlangan. Ibodatxonani tadqiq qilish 1983 yildan boshlangan. Dalvarzintepa majmuasidagi Budda ibodatxonasi va aslzodalar dafn etilgan dahma, shuningdek, oltin xazina to‘ldirilgan ikki yarim metrli sopol ko‘za buddaviylikning o‘sha davr xalqlari ijtimoiy-ma’naviy hayotidagi mavqeい va boshqa mahalliy dinlar o‘rtasida egallagan o‘rnini ko‘rsatadi. Dalvarzintepadan topilgan tangalar va sopollar o‘sha davr iqtisodiy hayotidan dalolat beradi.⁵ Kushon imperiyasida buddaviylik davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlangani sababli, diniy ramzlar aks etgan tangalar chiqarilgan. Bu tangalar va sopol idishlar buddaviylik dinining keng tarqalganligini va bu hududdagi iqtisodiy hayotda ham uning izlari ko‘rinib turganini ko‘rsatadi.

Buddaviylikning madaniy ta’siri. Buddaviylik O‘zbekistonda nafaqat diniy e’tiqod sifatida, balki madaniyat va san’atning rivojlanishiga ham kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Buddaviylik ibodatxonalari va ularga oid san’at namunalarini o‘rganish orqali mahalliy xalqning estetik qarashlari, diniy madaniyati haqida qimmatli ma’lumotlar olish mumkin. Fayoztepa va Ayritomdagи ibodatxona qoldiqlari, haykallar va freskalar buddaviylik san’ati bilan tanishish va uni o‘rganish uchun katta imkoniyat yaratadi.

Islomning tarqalishi va buddaviylikning susayishi. VII-VIII asrlarda arablar tomonidan amalga oshirilgan istilolar natijasida islom dini Markaziy Osiyoda keng tarqala boshhladi. Bu davrda buddaviylik susayib, o‘z o‘rnini islomga bo‘shatib berdi. Arab istilochilarasi islamni targ‘ib qilish bilan shug‘ullangan va buddaviylikka oid ko‘plab yodgorliklar va ibodatxonalar yo‘q qilindi. Ammo ayrim joylarda buddaviylik madaniy merosi saqlanib qolgan. O‘zbekistonning ayrim hududlarida hanuzgacha buddaviylikning ayrim izlari va arxeologik yodgorliklarini ko‘rish mumkin. Tarqalganligini va bu hududdagi iqtisodiy hayotda ham uning izlari ko‘rinib turganini ko‘rsatadi.

XULOSA

O‘zbekistonda buddaviylikning tarixi mamlakatning boy diniy va madaniy merosini namoyon etadi. Bu madaniy boylik O‘zbekiston xalqining diniy e’tiqodlari, san’at va me’morchilik sohasidagi muvaffaqiyatlarini aks ettiradi. Bugungi kunda buddaviylik yodgorliklari va arxeologik topilmalar tarixni o‘rganishda qimmatli manba bo‘lib xizmat qiladi. Ular nafaqat tarixchilar, balki sayyoohlар uchun ham katta qiziqish uyg‘otadi va O‘zbekistonning qadimiy madaniyatini kashf qilishga imkon yaratadi.

⁵ А.Очилдиев, Д.Рахимжонов, Н.Мухамедов. Диншунослик асослари (Ўкув қўлланма). «Тошкент ислом университети» нашриёт-матбаа бирлашмаси. Тошкент – 2013. 161-бет

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. А.Очилдиев, Д.Раҳимжонов, Н.Муҳамедов. Диншунослик асослари (Ўқув қўлланма). «Тошкент ислом университети» нашриёт-матбаа бирлашмаси. Тошкент – 2013. 161-бет
2. ЎТМИШГА НАЗАР / ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ / LOOK TO THE PAST № SI-3 (2021) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9599-2021-SI-3> Жалолиддин Аннаев. Тармита-Термиз буддавийлик маданияти. 157-бет
3. Builders of The Future. ISSN: 2181-2705. З.Э. Холиков. Тармита - Термиз Ўрта Осиёнинг юрик буддавийлик маркази. 304-бет.
<https://doi.org/10.37547/builders-v2-i2-46>
4. Builders of The Future. ISSN: 2181-2705 К. Хакбердиев. Распространение буддизма в Узбекистане <https://doi.org/10.37547/builders-v2-i2-45>